


**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS
TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
MATNLARNI "PASPORT" METODI
ORQALI TAHLIL QILISH**

*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari
uchun uslubiy ko'rsatma)*



Samarqand – 2024

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY
MARKAZI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS
TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
MATNLARNI "PASPORT" METODI ORQALI
TAHLIL QILISH**

*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf
o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma)*

D.Rabbonayeva. O‘qish savodxonligi darslarida matnlarni “Pasport” metodi orqali tahlil qilish. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. – Samarqand viloyati pedagogika markazi. 2024-yil. 20 bet.

Taqrizchilar: Z.Karshiyeva – Samarqand davlat universiteti
Kattaqo‘rg‘on filiali, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim,
sport kafedrası dotsenti
D.Jo‘rayeva – Samarqand viloyati pedagogika markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi
kafedrası katta o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy ko‘rsatma umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, PIRLS tadqiqotida adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish va axborotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadidagi o‘qish uchun baholash me‘zonlari va mahorat tavsiflari darsliklardagi matnlar asosida tushuntirib berilgan.

Uslubiy ko‘rsatma Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy kengashining 2024-yil 30-apreldagi 2- sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O'quvchilarni asar matni bilan tanishtirish

Badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga daxl qilishi ham mumkin. Badiiy matnda muallifning mazmunni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Badiiy matn tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida nazarda tutilishi lozim. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir.

Badiiy tahlil - matn tahlilining murakkab turlaridan bo'lib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o'rganishdir. Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog'langan kishilar hayotining ma'lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda [davrnin siyosiy ijtimoiy](#), madaniy va ahloqiy hayoti o'z aksini topadi. Matnning adabiy tahlilida quyidagi maslalarga alohida e'tibor berilishi lozim.

Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: 4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Arining qasosi" matnida olijanob fazilatlarini ulug'lash, adolat va do'stlik, tabiatga, hayvonlarga, qushlarga, hasharotlarga muhabbat erkinligi asarni g'oyaviy mazmunini tashkil qiladi.

Hikoya, masal, she'rning mazmunini to'g'ri idrok etish, shuningdek, matnning emostional ta'sirini oshirish uchun ifodali o'qish katta ahamiyatga ega.

Asar matni bilan tanishtirishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi (ba'zan asar matni magnitafon orqali ham eshittirilishi mumkin). O'quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi ularga boshlag'ich taassurotlarini aytishni talab

qiladigan savollar beradi. Masalan, «Hikoyaning qaysi oʻrni sizga yoqdi?», «Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?», «Hikoya oʻqilganda siz qaysi oʻrinda juda xursand boʻldingiz?» kabi va h.

Kirish suhbat, birinchidan, asarning oʻquvchilarga qanday taʼsir qilganini bilish, ikkinchidan, bolalarni asar matnini tahlil qilishga qiziqtirish, darsda oʻquvchilar faolligini oshirish maqsadini koʻzda tutadi.

2. Yaxshi oʻqiydigan oʻquvchiga oʻqitish. Oʻquvchining oldindan oʻqituvchi oʻqish yoʻllari bilan tanishtiradi va uning oʻqishini oʻzi kuzatadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi. Shundan soʻng tayyorlangan oʻquvchi sinf jamoasiga oʻqib beradi.

3. Ogʻzaki qayta hikoyalab – soʻzlab berish. Bu oʻqituvchidan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Chunki asar matniga yaqinlashtirib, badiiy vositalarini toʻliq saqlagan holda hikoyalash zarur, aks holda oʻquvchilarning badiiy asarni oʻqishga boʻlgan qiziqishi susayadi.

4. Yoddan ifodali aytib berish. Sheʼriy asarlar yoddan aytib berish orqali tanishtirilsa, oʻquvchi oʻqituvchining mahoratini yuqori baholaydi. Oʻzida ham yod olishga qiziqish paydo boʻladi.

5. Asarning muhim dialogli oʻrinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.

6. Asarning bir qismini (muammoli oʻrniga) oʻqituvchi oʻqib beradi, qolgan qismini oʻquvchilar ichda mustaqil oʻqiydilar.

8. Asar musiqa sadolari ostida oʻqib berilishi ham mumkin. Bu asarning taʼsirini kuchaytiradi, oʻquvchilarning estetik didini tarbiyalaydi, ularni toliqishdan saqlaydi.

Boshlangʻich sinflarda toʻgʻri, tez, ongli va ifodali oʻqishga oʻrgatish vazifasi oʻquvchilarda asarni tahlil qilish koʻnikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. Oʻqish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning oʻzaro bogʻliqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yoʻnalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning

rivojlanishi)ni, kompozistiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning gʻoyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bogʻliq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida taʼlim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yoʻnalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida oʻquvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi

Oʻquvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga oʻz soʻzlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi oʻquvchilarda oʻqilganlar yuzasidan muhokama yuritish koʻnikmasini oʻstirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar gʻoyasi oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan va muayyan izchillikda boʻlishi, oʻquvchilarning mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yoʻnaltirilganiga koʻra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Asar mazmunini oʻzlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.

2. Asar tilini oʻrganish va oʻzlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar oʻqituvchi asar gʻoyasini tushunishda oʻquvchilarga yordam berishni koʻzda tutsa, savol sabab-natija tarzida boʻladi. Anvar Obidjonning ”Odobli boʻlish osonmi?” ertagi gʻoyasi oʻquvchilarni salomlashish odobi bilan tanishtirish, ularda muomala madaniyatini tarbiyalashdir. Ertakdagi asosiy fikrni aniqlash uchun oʻqituvchi ”Anvar Obidjon aytmoqchi boʻlgan salom berish mavridlarini oʻz soʻzingiz bilan aytib bering.”, ”Nima uchun echki sichqonga nasihat qildi?”, ”Toshbaqaning sichqoncha haqidagi fikrini gapirib bering” kabi savol-topshiriqlardan foydalaniladi.

Savol va topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlanadi. Boshlangʻich sinflarda savol-topshiriqlarga javob berish ish turiga katta oʻrin

berilgan. O'qituvchining vazifasi ana shu savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. 4-sinf «O'qish» kitobidan o'rin olgan «Qodir bilan Sobir» matni yuzasidan o'quvchilarni o'z fikrini aytishga undovchi «Sobir o'qishdan kechikish sababini ochiq aytib, to'g'ri qildimi?», «Uning o'rnida siz bo'lganingizda nima qilardingiz?» kabi savollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stiradi va matnni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi.

O'quvchilarni savol berishga o'rgatish. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar uni ongli o'zlashtira olsalargina matn yuzasidan savol bera oladilar. O'quvchilarga savol berishni o'rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.



“Pasport” metodining mazmuni, maqsadi va tartibi

“PASPORT” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Sinf o‘quvchilari guruhlariga bo‘linadilar, guruhlar nomlanadi. O‘qituvchi yangi mavzuni e‘lon qiladi va har bir guruhdan yangi mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so‘raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a‘zolari faol ishtirok etishlarini ta‘minlash maqsadga muvofiq) fikr bildiradilar. Bayon etilgan fikrlar yangi mavzu mazmuni yoritilganligiga e‘tibor qaratiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn o‘quvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- o‘quvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini yozadilar. Matn bilan ishlashda o‘quvchilar yoki qatnashchilarga quyidagi ko‘rinishdagi jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi.

“PASPORT” METODI

1	Asarning nomi	
2	Asar muallifi	
3	Asardagi kalit soʻzlar	
4	Asar qahramonlari	
5	Asarning gʻoyasi	
6	Xulosa	

Belgilangan vaqt yakunlangach, oʻquvchilar uchun notanish va tushunarsiz boʻlgan maʼlumotlar oʻqituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati toʻliq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashgʻulot yakunlanadi.



**O‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan matnlarni “Pasport” metodi orqali
tahlil qilish
4-sinf. Arining qasosi**



“PASPORT” METODI		
1	Asarning nomi	Arining qasosi
2	Asar muallifi	Muhabbat Hamidova
3	Asardagi kalit so‘zlar	O‘tkir, Sardor, Rahima opa, qovoqari, ari, uya, devor, cho‘p, yoriq, sigir, dala.
4	Asar qahramonlari	Sardor, O‘tkir, Rahima opa, arilar
5	Asarning g‘oyasi	Tabiatni, qush va hayvonlarni, hasharotlarni asrab-avaylash
6	Xulosa	Har qanday yomonlik jazosiz qolmaydi

4-sinf. Do'stlikda gap katta



“PASPORT” METODI

1	Asarning nomi	Do'stlikda gap katta
2	Asar muallifi	O'zbek xalq ertagi
3	Asardagi kalit so'zlar	Qog'ozvoy, Kesakvoy, Bulut bobo, yomg'ir, qishloq, do'st.
4	Asar qahramonlari	Qog'ozvoy, Kesakvoy, Bulut bobo.
5	Asarning g'oyasi	Do'stlik, ahillik, bir-biriga yordam qo'lini cho'zish
6	Xulosa	Har qanday sharoitda ham do'stga sodiq qolish kerak

4-sinf. Bir hovli qush



“PASPORT” METODI

1	Asarning nomi	Bir hovli qush
2	Asar muallifi	Boltavoy Eshmurotov
3	Asardagi kalit soʻzlar	Aziz, Gʻani, chumchuq, chugʻurchuq, qargʻa, musicha, qish, sovuq, qor, quyosh, daraxt, bugʻdoy, gilos, oʻrik.
4	Asar qahramonlari	Aziz, Gʻani, chumchuq, chugʻurchuq, qargʻa, musicha.
5	Asarning gʻoyasi	Insonlarni mehr, sadoqat, saxiylik, insoniylikka choralash.
6	Xulosa	Tabiatni, qush va hayvonlarni, hasharotlarni asrab-avaylash

4-sinf. Tovuq bilan tulki



“PASPORT” METODI

1	Asarning nomi	Tovuq bilan tulki
2	Asar muallifi	O‘zbek xalq masali
3	Asardagi kalit so‘zlar	Tovuq, tulki, o‘rmon, daraxt, qushlar, tinchlik bitimi, mug‘ombir, itlar.
4	Asar qahramonlari	Tovuq, tulki
5	Asarning g‘oyasi	Insonlarni ogohlikka chaqirish
6	Xulosa	To‘satdan taklif qilingan do‘stlikdan ehtiyot bo‘lish kerak.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining beshta muhim tashabbusi dasturining to‘rtinchi tashabbusi: yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l topa olish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta‘lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

Darslikda berilgan matn va unda berilgan topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash doiralarini o‘stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o‘zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo‘lish kabilarni o‘zlashtirib borishga qaratilgan. Shuningdek, o‘qiganlarini mazmunli qilib gapirib berish, fikrni jamlash, uzviylikka e‘tibor berishga alohida ahamiyat qilinadi. Shunday qilinganda matn mazmunini o‘zlashtirish ancha oson bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yilning 29-aprel..

3. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., к.п.н., Кузнецова М.И., к.п.н., Цукерман Г.А., д.псих.н., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ международного исследования «Изучение качества чтения и понимания текста» Москва, 2007

4. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 2017-yil

5. M.E.Toirova 4-sinf o‘qish savodxonligi kitobi. Novda. Toshkent-2023-yil

ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI

1. <http://www.edu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.

2. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portali.

3. <http://www.multimedia.uz> ([http:// www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)) -O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

4. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta’lim markazi sayti

5. [http:// www.dtm.uz](http://www.dtm.uz) – Respublika test markazi sayti

MUNDARIJA

O'quvchilarni asar matni bilan tanishtirish.....	5
“Pasport” metodining mazmuni, maqsadi va tartibi.....	9
O'qish savodxonligi darsliklarida berilgan matnlarni “Pasport” metodi orqali tahlil qilish	11
Xulosa.....	15
Foydalanilgan adabiyotlar.....	16

RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA

**O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
MATNLARNI “PASPORT” METODI ORQALI
TAHLIL QILISH**

Terishga berildi: 05.03.2024 y.

Bosishga ruxsat berildi: 15.03.2024y.

Ofset bosma qog‘oz. Qog‘oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

«Times» garnituras. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq

Adadi: 25 nusxa.

Buyurtma №__

